

## CHET TIL DARSLARIDA TALABALARGA MADANIYATLARARO MULOQOTNI O'RGATISHNING HOZIRGI HOLATI

**Paziljanova Zulfiya Sabirjanovna**  
**Qo‘qon davlat pedagogika instituti**  
**katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari**  
**bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Abdurahmonova Fotimaxon, Jamolxonov Jamolxon, Botirqulova Zuhra,**  
**Qurbonova Nazokat QDPI 2-kurs talabalari**

***Annotatsiya:** Maqolada chet til darslarida talabalarga madaniyatlararo muloqotni o‘rgatishning ayni paytdagi holati, uning ahamiyati va ijobiy jihatlari haqida gap boradi.*

***Kalit so‘zlar:** madaniyatlararo muloqot, talabalar, bilim, ko‘nikma, malaka, mashqlar, kommunikativ kompetensiya, kognitiv yondashuv, kommunikativ yondashuv, madaniyatlararo yondashuv.*

***Аннотация:** В статье говорится об актуальном состоянии преподавания межкультурной коммуникации студентов на уроках иностранного языка, ее важности и положительных аспектах.*

***Ключевые слова:** межкультурная коммуникация, студенты, знания, умения, компетентность, упражнения, коммуникативная компетентность, когнитивный подход, коммуникативный подход, межкультурный подход*

***Annotation:** The article talks about the current state of teaching intercultural communication to students in foreign language lessons, its importance and positive aspects.*

***Key words:** intercultural communication, students, knowledge, skills, competence, exercises, communicative competence, cognitive approach, communicative approach, intercultural approach*

Chet til o‘qitish metodikasi kursida ta’kidlanishicha, har bir nemis tili darsi madaniyatlararo muloqot sifatida olib boriladi. Nemis tili darsining asosiy vazifalari

til o'rganuvchilarning madaniyatlararo muloqot omilkorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Talabalarni madaniyatlararo muloqotga o'rgatish uchun esa chet til o'qituvchisidan o'z navbatida til o'rganuvchilarning yoshiga va qiziqishiga mos tarzda mashqlarni tanlash va taqdim etish talab etiladi [1, 234].

Bunday mashqlar talabalarining chet tilidan egalagan bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish bilan birga ularning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilmog'i lozim. Bu esa ularning tili o'rganilayotgan mamlakatlar vakillari bilan muloqot olib borganda vaziyatlardan to'g'ri foydalanish, erkin muloqot qila olish imkoniyatlarini yaratadi. O'qituvchi shunday mavzularni tanlashi kerakki, ularda talabalarni diniy bag'rikenglik, boshqa millat vakili bilan suhbatlashganda uning madaniyatini hurmat qilish va umumiy xulosalarga tez kelish to'g'risidagi fikrlar bo'lishi talab etiladi. Bunday matnlarni o'qib o'rgangan talabalar tili o'rganilayotgan mamlakatlar vakillari bilan muloqot o'rnatganda ularning fikrlarini to'g'ri va tez tushunadigan, kerakli xulosalarni chiqaradigan bo'lib tarbiyalanadilar. Mashqlarning bir qismi kognitiv (onglilik) tamoyillariga qaratilmog'i taqozo etiladi. Chunki, bu talabalarining chet tili darslarida egallagan lingvokulturologik va ijtimoiy-madaniy bilimlari, o'z madaniyatini bilishi, o'ylab, to'g'ri fikr yuritib muloqot olib borish natijasida tili o'rganilayotgan mamlakat vakilida mamlakatimiz va madaniyatimiz to'g'risida ijobiy taassurot qoldirishiga xizmat qiladi [2, 22].

Madaniyatlararo muloqotni o'rganish jarayonida talabalar begona mamlakat va uning madaniyati haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Chet tili darsida madaniyatlararo muloqotga o'rgatishning ahamiyati katta va bu, asosan, talabalar boshqa mamlakat va madaniyatlar bilan tanishish va ularni yaxshiroq tushunish imkoniyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu orqali ularning begona madaniyatdan qo'rqish hissi kamaytiriladi.

Nemis tili darslari samaradorligi, talabalarni mustaqil tarzda ijodiy fikrlashga, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olishga o'rgatish bilan o'lchanadi. G.Noyner til muhiti mavjud

bo'lmagan joyda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish uchun darsni kommunikativ metod asosida tashkil etish, talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatib borish uchun muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va ularni yechishga qaratilgan vazifalarni bajarishni tavsiya etadi [3, 240]. Talabalarga madaniyatlararo muloqotni o'rgatish pragmatik (amaliy) va kognitiv (ongli) xususiyatga egadir. Birinchisi, talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi, ikkinchisi, begona lingvomadaniyatni idrok etishda asosiy vosita vazifasini o'taydi.

Nemis tili darslarida talabalarga madaniyatlararo muloqotni o'rgatish, tili o'rganilayotgan mamlakat(lar) nutq madaniyati, tarixi, bayramlarini o'rganish ikki yo'l orqali:

1) darsda, nemis tili amaliy mashg'ulotlarida

2) darsdan tashqari ishlar jarayoni (turli tadbirlar, kechalar o'tkazish, to'garaklar faoliyati)da amalga oshiriladi [4, 341-347].

Talaba madaniyatlararo muloqot jarayonida so'z yordamida o'z fikrini bayon etish va uni suhbatdoshiga to'g'ri yetkazishga o'rgatilar ekan, muloqot muvaffaqiyati axborot uzatuvchining til bilish saviyasi, ma'naviy dunyoqarashi bilan bog'liq jarayon ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir [5, 349]. Muloqotning boshlanishida o'quvchining xayolida muayyan tasavvur o'z milliy madaniyati nuqtai nazaridan paydo bo'ladi va shakllanishi kuzatiladi. U shu tasavvurni so'zlar, turli imo – ishoralar yordamida sherigiga to'g'ri yetkazmoqchi bo'ladi. O'quvchi o'z nutqini o'z bilim darajasi doirasida kodlaydi va sherigiga yuboradi. Qabul qiluvchi ham o'z navbatida, axborotni o'z tasavvurida, o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda shakllantiradi. O'quvchi fikrini bayon etishda xatolikka yo'l qo'ysa gapini to'xtatib, imo-ishoralarga o'tishi yoki axborot yetkazishning boshqa usullarini qidirishi mumkin.

Madaniyatlararo muloqot bevosita mamlakatshunoslik bilan bog'liqdir. Chunki mamlakatshunoslik o'z ichiga geografiya, siyosat, tarix, san'at, ilm-fan, sotsiologiya, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi kabi sohalar bilan bir qatorda madaniyat va kundalik hayotdagi bilimni ham mujassamlaydi. Kundalik hayotdagi bilim deganda kundalik vaziyatdagi bilimlar, masalan, restoranda, xarid qilishda yoki mehmonda o'zini tutish

tushuniladi. Kundalik hayotdagi bilim aslida begona mamlakatda o'zini begona his qilmaslik uchun kerak bo'ladigan bilimni anglatadi. Demak mamlakatshunoslik talabalarga begona madaniyatning turli sohalaridan eng muhim bilimlarni egallash imkonini beradi. Bunda gap nafaqat ma'lumot berish, balki e'tiqod, qadriyatlar, tafakkur, xatti-harakat, ijtimoiy munosabatlar va ma'lum bir mamlakatda yashovchi odamlarning idroki haqida boradi.

Tyubingen sirtqi instituti professorlari G. Vaymann va V.Xoshlarning tasnifi bo'yicha mamlakatshunoslikni o'qitishning uch asosiy yondashuvi mavjud:

- kognitiv yondashuv
- kommunikativ yondashuv
- madaniyatlararo yondashuv [6, 514].

Amaliy xorijiy til darslarida bu yondashuvlar kamdan-kam hollardagina o'z asl shaklida uchraydi. Ularni ozmi-ko'pmi aralash holda uchratish mumkin.

### **1. Adabiyotlar:**

2. Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе: Проблемы и перспективы. – М.: Просвещение, 1988. – 234 с. 4. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. 2-е изд. – М.: АРКТИ, 2003. – 286 с.
3. Гальскова Н.Д. Межкультурное обучение: проблема целей и содержания обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе. 2004. №1. – С.22.
4. Chet til o'qitish metodlari. G.Noynner, X.Xunfeld. Nemis tilidan S.Saydaliyev tarjimasini. – Namangan: NamDU, 2005. – 240 b.
5. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
6. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2019 йил 4-сон 350.
7. Weimann, G., Hosch, W.: Kulturverstehen im Deutschunterricht, In: Info DaF, Heft 5, 1993.

8. Paziljanova, Z. (2023). МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТНИНГ АҚШДА ПАЙДО БЎЛИШИ. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 31-35.
9. Paziljanova, Z. (2023). МОДЕЛИ КОММУНИКАЦИИ В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ. *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 517-519.
10. Paziljanova, Z. (2023). Intercultural communication. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 1421–1423.
11. Paziljanova, Z. (2023). Models of communication in intercultural communication. *Scientific Journal of the Fergana State University*, 29(1), 107. [https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29\\_iss1/a108](https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a108)
12. Paziljanova, Z., & Abdug'ofurova, A. (2023). МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТ ТУШУНЧАСИ HAQIDA. *Наука и инновация*, 1(10), 58-59.